



MUSEOLOGICAL ANALYSIS OF THE “AFROSIYOB” MUSEUM EXPOSITION AND PROSPECTS FOR ITS IMPROVEMENT

Sukhrob Eshpulotov

Independent Researcher

Museum of the History of Uzbekistan

Academy of Sciences of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Afrasiab Museum, museology, exposition, archaeological heritage, museumification, reconstruction, multimedia technologies.

Received: 12.06.26

Accepted: 13.06.26

Published: 14.06.26

Abstract: This article provides a museological analysis of the exposition at the Afrasiab Museum, part of the Samarkand State Museum-Reserve, based on modern principles of museology. The exposition's approach to displaying archaeological finds in connection with their original environment and architectural reconstructions is highlighted as a major achievement. However, visual analysis reveals several issues, including inadequate targeted lighting, uniform placement of artifacts in display cases regardless of their significance, and a lack of modern multimedia tools. The article proposes scientifically grounded recommendations for aligning the museum's exposition with international standards, specifically through the implementation of focused lighting, interactive models, and advanced design solutions.

AFROSIYOB MUZEYI EKSPOZITSIYASINING MUZEYSHUNOSLIK TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Suxrob Eshpulotov

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi

O'zbekiston tarixi muzeyi mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Afrosiyob muzeyi, muzeyshunoslik, ekspozitsiya, arxeologik meros, muzeylashtirish, rekonstruksiya,

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibidagi Afrosiyob muzeyi ekspozitsiyasi zamonaviy

multimedia texnologiyalari.

muzeyshunoslik tamoyillari asosida tahlil qilingan. Ekspozitsiyaning arxeologik topilmalarni o'zining asliy muhiti va me'moriy rekonstruksiyalar bilan bog'liq holda namoyish etishi uning asosiy yutug'i sifatida e'tirof etiladi. Biroq, vizual tahlillar natijasida yoritish tizimining yetishmasligi, vitrinalardagi ashyolarning bir xil tartibda taqdim etilishi hamda zamonaviy multimedia vositalarining kamligi kabi muammolar aniqlangan. Maqolada muzey ekspozitsiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish, xususan, yo'naltirilgan yorug'lik, interaktiv modellar va ilg'or dizayn yechimlarini qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

МУЗЕЕВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКСПОЗИЦИИ МУЗЕЯ «АФРАСИАБ» И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Сухроб Эшпулатов

Независимый исследователь

Музей истории Узбекистана

Академия наук Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Музей «Афрасиаб», музееведение, экспозиция, археологическое наследие, музеефикация, реконструкция, мультимедийные технологии.

Аннотация: В данной статье на основе современных принципов музееведения проанализирована экспозиция музея «Афрасиаб», входящего в состав Самаркандского государственного музея-заповедника. В качестве главного достижения экспозиции признается демонстрация археологических находок в их аутентичной среде и во взаимосвязи с архитектурными реконструкциями. Однако в результате визуального анализа были выявлены такие проблемы, как нехватка систем освещения, однообразная подача экспонатов в витринах и дефицит современных мультимедийных средств. В статье разработаны научно обоснованные предложения по приведению музейной экспозиции в соответствие с международными стандартами, в частности, по применению направленного освещения, интерактивных моделей и передовых дизайнерских решений.

Kirish. Samarqand shahrining qadimiy tarixi va sivilizatsiyasini o'zida aks ettiruvchi Afrosiyob arxeologik yodgorligi O'zbekiston va jahon madaniy merosida alohida o'ringa ega. Ushbu yodgorlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan Afrosiyob muzeyi nodir arxeologik ashyolarni, xususan, dunyoga mashhur devoriy rasmlarni saqlash va ommaga namoyish etishda muhim ilmiy-madaniy markaz hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro muzeyshunoslikda arxeologik topilmalarni shunchaki vitrinalarda namoyish etish amaliyotidan voz kechilib, ularni o'zining tarixiy muhiti, topografiyasi va madaniy qatlamlari bilan bog'lagan holda muzeylashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Garchi Afrosiyob muzeyi ekspozitsiyasida ushbu yondashuv ma'lum darajada o'z aksini topgan bo'lsa-da, jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalar va ilg'or ko'rgazma standartlari muzey namoyishlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi — Afrosiyob muzeyi ekspozitsiyasining amaldagi holatini muzeyshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilish, undagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda namoyish sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Methodology (Metodologiya)

Tadqiqot jarayonida muzeyshunoslik va arxeologik merosni o'rganishga oid qator umumilmiy va maxsus metodlardan foydalanildi. Xususan:

Muzey zallaridagi arxeologik buyumlarning namoyish etilish tartibi, yoritish tizimining holati, vitrinalarning funktsionalligi va me'moriy rekonstruksiyalarning o'zaro mutanosibligini o'rganish maqsadida qo'llanildi;

-Afrosiyob muzeyining amaldagi holatini Yevropa va Osiyodagi yetakchi arxeologik muzeylarning ilg'or tajribalari, ko'rgazma dizayni va axborot texnologiyalarini qo'llash darajasi bilan solishtirish uchun foydalanildi;

-Arxeologik meros obyektlarini muzeylashtirish va ko'rgazma nazariyasi bo'yicha mahalliy (A.A. Yarkulov, D.T. Kuryazova) hamda xorijiy (D. Din) mutaxassislarning ilmiy ishlari o'rganilib, ekspozitsiyani takomillashtirishga doir xulosalar sintez qilindi.

Afrosiyob muzeyi Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining asosiy arxeologik muzeyi bo'lib, Afrosiyob arxeologik yodgorligi bilan bevosita bog'liq. Muzey ekspozitsiyasi Samarqand tarixini miloddan avvalgi VIII asrdan milodiy XIII asr boshlarigacha bo'lgan davrini aks ettiradi. Ekspozitsiya asosan Afrosiyob shaharchasida yillar davomida olib borilgan qazishmalar davomida yig'ilgan arxeologik materiallarga asoslangan.

Muzey ekspozitsiyasi xronologik ketma-ketlikda tuzilgan va Afrosiyob tarixining asosiy bosqichlarini aks ettiruvchi zallar ketma-ketligiga ajratilgan. Bular Qadimgi Samarqand davri, Ellinistik davr, Qang' va Kushon davrlari, ilk o'rta asrlar va mo'g'ullardan istelosi arafasidagi

Samarqand zallaridan iborat. Ekspozitsiyaning asosiy xususiyati arxeologik rekonstruksiyalardan keng foydalanilganidadir. Turar-joylar qismlari, ibodatxona qismlari, qal'a devorlari va me'moriy elementlar kabilar shular jumlasidandir. Ko'pgina muzeylarga xos bo'lgan arxeologik buyumlarning kolleksiya asosida namoyish etilishidan farqli o'laroq, Afrosiyob muzeyida ko'plab arxeologik buyumlar ularning topilgan joyi va muhitini ko'rsatadigan tarzda joylashtirilgan. Ekspozitsiya konsepsiyasi arxeologik buyumlarni mavzu va ularning asl muhitiga bog'lab namoyish etishga asoslangan bo'lib, bu zamonaviy muzeyshunoslik tamoyillariga mos keladi.

Afrosiyob muzeyidagi mazkur yondashuv arxeologik obyektini topilgan muhit, yodgorlik topografiyasi va tarixiy davrlar ketma-ketligi bilan bog'lashga intilishi bilan ahamiyatlidir. A.A. Yarkulov muzey-qo'riqxonada shaklida arxeologik merosni saqlash va namoyish qilishda ochiq osmon ostidagi ekspozitsiya, landshaft, tashriflar markazi, ilmiy izlanish zonasi va dam olish hududini o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'rishni taklif qiladi [1]. Afrosiyob uchun ham ekspozitsiya va yodgorlik hududi o'rtasidagi aloqani kuchaytirish muhimdir.

Vizual kuzatuv natijalari shuni ko'rsatadiki, arxeologik buyumlar ko'pincha qayta tiklangan sahna va muhitlarda namoyish etilgan. Bularga misol qilib, tegirmon toshlari va idishlar bilan jihozlangan xo'jalik burchaklari, ibodatxaning ichki qismi, devor bo'laklari va kolonnalarni keltirish mumkin. Masalan, katta sopol humlar qayta tiklangan devor yoniga qo'yilib, ularning asl joylashuvi qanday bo'lganini ko'rsatilgan.

Bu tartib arxeologik muhit effektini yaratadi va buyumlarni qadimiy shaharning ma'lum qismi elementlari sifatida qabul qilish imkonini beradi. Xalqaro amaliyotda amaliyotda topilmalarni ular ishlatilgan muhit bilan bog'laydigan rekonstruksiya arxeologik topilmalarni talqin qilishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi [2]. Afrosiyob muzeyidagi ekspozitsiya Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining boshqa muzeylariga nisbatan ushbu tamoyilning nisbatan yuqori darajada qo'llanilgani bilan ajralib turadi.

Ekspozitsiya ikki turdagi ochiq maydonlar va klassik ekspozitsiya vitrinalari kabi arxeologik ekspozitsiyalarni birlashtiradi. Kichik buyumlar (sopol, haykalchalar, numizmatika va qurollar) devor va gorizonta ekspozitsiya vitrinalarida, kattaroq idishlar va me'moriy elementlar esa rekonstruksiya qilingan muhitlarda ekspozitsiya vitrinalari tashqarisida namoyish etilgan.

Maxsus yoritilgan devor vitrinalari kichik sopol buyumlar va topilmalarni turkumlab ko'rsatish uchun ishlatilgan, bu ularni aniq ko'rish va tartibli joylashtirishga yordam beradi. Markazdagi gorizonta vitrinalar esa tangalar va mayda arxeologik buyumlar uchun mo'ljallangan. Bunday vitrinalarni birga qo'llash arxeologik ko'rgazmalar uchun odatiy yechim hisoblanadi.

Ammo ayrim vitrinalarda kichik buyumlar juda baland joylashtirilgani uchun ularni ko'rish qiyin. Shuningdek, ba'zi joylarda buyumlar qator qilib qo'yilgan bo'lsa-da, eng muhimlari alohida ajratib ko'rsatilmagan. Natijada ilmiy jihatdan qimmatli buyumlar ham oddiyolari bilan bir xil ko'rinib qolgan. Hozirgi kunda dunyo muzeylarida vitrinalar odamga qulay ko'rish va muhim buyumlarni ajratib ko'rsatish tamoyiliga asoslanib tayyorlanmoqda. Afrosiyob muzeyida vitrinalar funksional hijatdan talabga javob beradi, ammo ularda joylashtirilgan eksponatlarning ilmiy ahamiyatini yetarli darajada ajratib ko'rsatib berolmaydi.

Muzey zalining yoritilishi asosan umumiy shift yoritgichlari bilan ta'minlangan, bu esa bir xil yoritishni ta'minlaydi. Vitrinalar ham ichki yoritish bilan jihozlangan. Biroq, ekspozitsiyadagi yoritish kamdan-kam hollarda buyumlarni ajratib ko'rsatish vositasi sifatida ishlatiladi. Asosiy buyumlar va rekonstruksiyalar uchun yo'naltirilgan yoritish yo'q. Arxitektura rekonstruksiyalarini o'z ichiga olgan zallarda yorug'lik bir xil yoyiladi va biror noyob ashyoga diqqatni qaratmaydi.

Afrosiyob devoriy rasmlari joylashgan zalda shiftdagi lampalar umumiy yorug'lik beradi, lekin rasmlarning yuzasi va relyefini yetarli darajada ko'rsatmaydi. Zamonaviy muzeylarda yorug'lik arxeologik merosni ta'sirli qilib ko'rsatish vositasi hisoblanadi. Afrosiyob muzeyida esa yorug'lik ko'rishni ta'minlaydi, ammo ekspozitsiyani yanada ta'sirchan va jonli qilib bermaydi.

Ekspozitsiyada me'moriy shakllar - qayta tiklangan devorlar, mehroblar, arkalar va kolonnalar keng qo'llanilgan. Bular Afrosiyob arxeologik yodgorligi bilan vizual aloqani ta'minlaydi va sayyohlarda qadimiy shahar muhitini shakllantiradi. Devorlarning rangi (loy rang) arxeologik materiallarga mos keladi va originallik ta'sirini kuchaytiradi. Zallar ketma-ket tuzilishga ega bo'lib, markaziy zonalar rekonstruksiyalar va katta buyumlar uchun, devor ostilari esa vitrinalar uchun ajratilgan. Ushbu dizayn klassik ekspozitsiya sxemasiga mos keladi.

Ekspozitsiyada buyumlar, me'moriy elementlar va grafik tushuntirishlar birga qo'llanilgan. Xaritalar, diagrammalar, devor maketlari va inshootlar rekonstruksiyalari ishlatilgan. Birinchi zalda Afrosiyobning qatlamlari ko'rsatilgan diorama va yodgorlikning relyefli xaritasi berilgan, bu joy haqida ilmiy tasavvur hosil qiladi. Eng muhim qism Afrosiyob devor rasmlari zalidir. Bu yerda asl arxeologik obyekt maxsus yaratilgan muhitda, o'z joyiga yaqin tarzda namoyish etilgan. Ammo ayrim arxeologik majmualar qazishma tuzilishi va qatlamlari haqida aniq ko'rgazmali tushuntirishlar bilan berilmagan. Buyumlar muhitiga o'xshash qilib joylashtirilgan, lekin bu holat har doim ham chizma yoki sxemalar bilan tushuntirilmaydi. Muzeylashtirish nuqtai nazaridan Afrosiyob muzeyi O'zbekistondagi ko'pgina arxeologik ekspozitsiyalardan

ustunlik qiladi. Biroq, yoritish tizimi va multimedia talqini jihatidan u Yevropa va Osiyodagi zamonaviy arxeologik muzeylardan orqada qolgan.

Mazkur ustunlikni yanada kuchaytirish uchun Afrosiyob ekspozitsiyasida qazishmalar tarixi, topilmalarning aniq joylashuvi, madaniy qatlamlar va topografik o'zgarishlarni ko'rsatuvchi raqamli xarita hamda interaktiv "qatlamlar modeli"ni joriy etish maqsadga muvofiq. Dean kompyuter va raqamli vositalarni ekspozitsiyada elektron yorliq, yo'naltiruvchi va interaktiv o'qituvchi sifatida qo'llash mumkinligini ko'rsatadi [3].

Natija va tahlillar. Afrosiyob muzeyi arxeologik topilmalarni ularning tarixiy muhiti va qazishma hududi bilan bog'lab namoyish etish borasida O'zbekistondagi eng ilg'or tajribalardan biriga ega. Uning rekonstruksiyalarga asoslangan dizayni tomoshabinda qadimiy shahar haqida to'liq tasavvur uyg'otishga xizmat qiladi. Biroq, muzey o'zining boy ilmiy salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun bir qator tizimli yangilanishlarga muhtoj.

Xullas, ekspozitsiya tahlili natijasida quyidagi muammolarni bartaraf etish zarur deb topildi:

- noyob va asosiy ashyolarning yorug'lik bilan ajratib ko'rsatishning yetarli emasligi;
- Ekspozitsiya vitrinlarida ashyolarni joylashtirishda ularning noyobligining hisobga olinmasdan bir xil joylashtirilishi;
- kichik buyumlarning ba'zan ko'rish uchun qulay joylashtirilmaganligi;
- Arxeologik majmualar haqida chizma va ko'rgazmali tasvirlar yetarli emas;

Hozirgi xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda, Afrosiyob arxeologik materiallarini muzeylashtirishni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- rekonstruksiyalar va eng muhim buyumlarni alohida, ko'zga tashlanadigan qilib ko'rsatish;
- buyumlarning ilmiy ahamiyatiga qarab vitrinalarni turlicha tashkil etish;
- qazishmalar va qatlamlar haqida chizma va ko'rgazmali tushuntirishlarni ko'paytirish;
- har bir tarixiy davr zalida diqqatni tortadigan markaziy nuqta yaratish;
- arxeologik rekonstruksiyalarni multimedia vositalari bilan ko'rsatish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish arxeologik ashyolarning ifodaviyligi oshiradi va Afrosiyob muzeyi eksponatlarini zamonaviy xalqaro arxeologik muzeyshunoslik standartlariga olib chiqadi.

Shu bilan birga, mazkur tadbirlar konservatsiya talablari bilan uyg'un bo'lishi kerak. Devoriy rasmlar, sopol, organik va metall buyumlar uchun yoritish, mikroiklim va xavfsizlik rejimi alohida ishlab chiqilishi lozim. Muzeylashtirishning muvaffaqiyati faqat ko'rgazmaviy

ta'sirchanlikda emas, balki ashyolarning uzoq muddatli saqlanishi, ilmiy hujjatlashtirilishi va jamoatchilikka tushunarli yetkazilishida namoyon bo'ladi.

Diskussiya. Tadqiqot natijalari Afrosiyob muzeyi O'zbekistondagi arxeologik merosni kontekstual muzeylashtirish bo'yicha eng ilg'or tajribalardan biriga ega ekanligini ko'rsatdi. Muzey ekspozitsiyasida rekonstruksiyalar, me'moriy elementlar va arxeologik topilmalarni ularning tarixiy muhiti bilan bog'lashga intilish zamonaviy muzeyshunoslik tamoyillariga mos keladi. Biroq tahlil natijalari yoritish tizimi, eksponatlarni vizual iyerarxiya asosida joylashtirish, multimedia vositalaridan foydalanish hamda arxeologik majmualarni grafik va raqamli interpretatsiya qilish yo'nalishlarida rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi.

Mazkur natijalar A.A. Yarkulov, D.T. Kuryazova va D. Deanning arxeologik merosni muzeylashtirish bo'yicha ilmiy qarashlari bilan mos keladi. Zamonaviy muzey amaliyotida ekspozitsiyaning asosiy vazifasi eksponatlarni namoyish etish bilangina cheklanmay, ularning tarixiy konteksti, ilmiy talqini va tashrif buyuruvchi bilan samarali kommunikatsiyani ta'minlashdan iborat. Shu sababli Afrosiyob muzeyida raqamli texnologiyalar, interaktiv ekspozitsiyalar, yo'naltirilgan yoritish hamda rekonstruksiyalarni yanada takomillashtirish muzeyning ilmiy va ta'limiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, barcha modernizatsiya ishlari konservatsiya talablari bilan uyg'un holda amalga oshirilishi zarur. Devoriy rasmlar, sopol, organik va metall buyumlar uchun yoritish, mikroiklim va xavfsizlik rejimi alohida ishlab chiqilishi lozim. Muzeylashtirishning muvaffaqiyati faqat ko'rgazmaviy ta'sirchanlikda emas, balki ashyolarning uzoq muddatli saqlanishi, ilmiy hujjatlashtirilishi va jamoatchilikka tushunarli yetkazilishida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Afrosiyob muzeyi O'zbekiston arxeologik merosini muzeylashtirish sohasida ilg'or tajribaga ega ekanligini ko'rsatdi. Muzey ekspozitsiyasi arxeologik topilmalarni ularning tarixiy muhiti, me'moriy rekonstruksiyalari va yodgorlik topografiyasi bilan bog'liq holda namoyish etishi bilan respublikadagi ko'plab arxeologik muzeylardan ajralib turadi. Bu yondashuv tashrif buyuruvchilarda qadimgi Samarqand tarixi va madaniyati haqida yaxlit tasavvur shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil ekspozitsiyani zamonaviy xalqaro muzeyshunoslik talablari asosida yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Xususan, yoritish tizimini optimallashtirish, eksponatlarni ilmiy ahamiyatiga ko'ra vizual jihatdan ajratib ko'rsatish, arxeologik majmualarni rekonstruksiya va grafik materiallar bilan boyitish hamda multimedia texnologiyalarini keng joriy etish ekspozitsiyaning ilmiy, ta'limiy va kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi Afrosiyob muzeyi ekspozitsiyasining ilmiy mazmunini yanada boyitadi, arxeologik merosni zamonaviy muzeylashtirish tamoyillariga mos ravishda namoyish etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda muzeyning milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy-madaniy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dean David. Museum Exhibition: Theory and Practice. – London; New York: Routledge, 1994/2002. – P. 132–135.
2. Ismailova J.X. Muzeyshunoslik atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent 2016, - 100 b.
3. Ismailova J.X., Muxamedova M.S. Muzey predmetlari atribusiyasi va ekspertizasi – T.:PREMIER PRINT, 2013. – 234 b.
4. Ismailova J.X., Muxamedova M.S. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Munis design group, 2013. - 310 b.
5. Ismailova J.X., Zamonaviy muzeyshunoslik asoslari. – Toshkent, 2016, - 208 b.
6. Kuryazova D.T. O'zbekiston moddiy madaniy merosi: o'rganish, saqlash va muzeylashtirish masalalari. – Toshkent: MATRIX, 2025. – B. 122–147; Dean David. Museum Exhibition: Theory and Practice. – London; New York: Routledge, 1994/2002. – P. 67–81
7. Yarkulov A.A. Arxeologiya merosi obyektlarini muzeylashtirish. – Toshkent: Renessans press, 2023. – B. 122–131
8. Коренева А.Ю. Музейная экспозиция как текст: теоретические аспекты. Электронное научное издание Альманах Пространство и Время. – 2015. – Т. 10. – Вып. 1, С.114.